

TURKISTONDA MUSTAMLAKA AGRAR SIYOSATI UNI MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI (1870-1900 YILLAR)**Xoshimova Moxira Nabijonovna***Oltiariq tuman oqbo'yra mfy 19 umumiy o'rta maktabi huquq fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *O'rta Osiyoda agrar siyosatga nisbatan aniq ishlab chiqilgan siyosat yo'q edi. Ba'zan yerdan foydalanishda kichik o'zgarishlar, yer bilan ikkilamchi munosabatlar to'g'risidagi qoidalar va qarorlar bo'lgan, ammo aniq rejali ishlar amalga oshirilmagan. Ushbu maqola Turkistonda mustamlaka agrar siyosati uni meyoriy-huquqiy asoslarini yaratilishi(1870-1900)haqida so'z yuritiladi.*

Kalit So'zlar: *Turkiston , agrar siyosat, yer-xo'jaligi , iqtisodiy, milliy zulm, davlatlar.*

KIRISH

Ma'lumki 1870-1900 yillarda mustamlaka hukumati Turkistonda agrar islohot o'tkazish uchun shoshilinch choralar ko'ra boshladi. Sharqda agrar masala nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy masala edi.

ASOSIY QISM

Turkiston o'lkasini iqtisodini Markaz manfaatlariga to'la bo'ysundirishda bu yerda paxta yakka hokimligini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etar edi. Shuning uchun ham mustamlaka ma'muriyati agrar soha bilan izchil shug'ullana boshladi. Turkistondagi agrar siyosatni bosh maqsadi va asosiy yo'nalishlarini asosiy maqsadi shunday ifodalanadi. “ Bu markaziy masalada uch ko'rinish mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv “Pochta” bo'lsa, ikkinchisida “Sug'orish” va nihoyat, uchinchisida uncha ko'zga tashlanib turmagan bo'lsa ham, aslida hammasidan muhimi – “ruslarni ko'chirib keltirib o'rmashtirish” yozuvi turibdi”. Rossiya yer tuzilishi va yer ishlari boshqaruvchisi (1870-1900), agrar islohot sohasida P.A.Stolipinning eng yaqin xodimi bo'lgan A.V.Krivoshein o'z fikrlarini aniq dalillashga urinib, masalani dastlabki iqtisodiy tomoniga urg'u beradi. “Bizning ichki bozorimizga so'nggi yigirma yil ichida Amerika paxtasi uchun faqat boj tariqasida yetti yuz million rubl' to'lashga to'g'ri keldi. 1900 yildan buyon esa yiliga qiriq million to'lab kelmoqdamiz. Turkistonni Rossiya davlati uchun bebaho boyliklar makoni ekanligi, ya'ni masalani sof iqtisodiy tomoniga markaz jiddiy e'tibor qaratgan edi”.

Yerning kinga tegishliligi, mulk shakllari davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilab berdi. “Nizom”da “Turkiston o'lkasi yer xo'jaligi” deb nomlangan maxsus bo'lim bo'lib, mamlakatdagi yer-xo'jalik munosabatlarini butunlay o'zgartirdi.

255-moddaga ko'ra Turkiston o'lkasi yerlari, o'rmonlar va yer osti foydali qazilmalari. ham davlat mulki deb e'lon qilingan, ya'ni Rossiya mulkiga o'tgan va ulardan foydalanish imperiyaning umumiy qonunlari bilan belgilab qo'yilgan, qadimgi tarixiy huquqlaridan mahrum qilingan.

Bu “Nizom” O'rta Osiyoning ko'chmanchilar yashaydigan hududlarida qo'riqxonalar tashkil etish va keyinchalik mahalliy aholini ko'chirish uchun foydalanishga asos bo'ldi.

Nizomning mulk va xayr-ehsonga oid moddalarida Turkiston o‘lkasida rus hokimiyatining asosiy siyosiy muxoliflari bo‘lgan rus davlatining zodagon zamindorlari hamda oliy va mayda burjua ruhoniylarini butunlay yo‘q qilish niyati bildirilgan edi. Yirik yer egaligi tugatildi. Yangi yer egalari yerdan foydalanganlik uchun oldingi to‘lov o‘rniga davlat xazinasiga umumiy davlat boji to‘lashlari kerak edi. Yirik zamindorlar asosiy daromad manbai - o‘nlab yillar davomida egalik qilgan yerlardan mahrum bo‘ldilar. Katta zamindorlar yo‘q o‘lishga yoki yangi hukumatga xizmat qilishga va xushomad qilishga majbur bo‘ldilar.

Xuddi shunday zarba ruhoniylarga ham berildi. Vaqf yerlari ularda yashovchi aholiga ta'sir ko‘rsatgan. Amalda bu diniy muassasalar bu yerlarni tasarruf eta olmasligini anglatardi. Ruhoniylar endi soliqlarning faqat bir qismini olgan, qolgan qismi esa davlat xazinasiga tushardi. Yangi vaqf hujjatlarini tasdiqlash faqat general-gubernatorning roziligi bilan va vaqflarni davlat boji va yig‘imlaridan ozod qilmasdan amalga oshirilgan. Xususiy vaqfni tashkil etuvchi yerlar, ya‘ni masjididan tashqarida xususiy shaxsga tegishli bo‘lgan yerlar, ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan yerlar davlat bojiga tortilar edi.

Musulmon huquqining ko‘p asrlilik ustunlarini barbod etgan hamda vaqf munosabatlaridagi odatlar va an‘analarni tugatib tashlagan yana bir modda bor edi. Unda aytilishicha, vaqf hujjatlarini e‘tirof etish, vaqf daromadlari to‘g‘ri ishlatilishi ustidan nazorat qilish va vaqflarni taftish qilish huquqi viloyatlar boshqaruvlariga, ya‘ni podsho hokimiyatiga o‘tkazilgan edi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mustamlakachilik siyosatining mahsuli sifatida yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, ma‘naviy hayot istiqloq uchun kurashlarning zamini va sabablarini shakllantiradi. Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgandan keyin uning mustaqilligini, milliylikini qo‘porib tashlab, mustamlakachilik va milliy zulm ostida o‘zining siyosiy - ma‘muriy tizimini tashkil etdi. Bu tizimni boshqarish yevropalik aholi zimmasiga yuklandi. Mahalliy aholi esa qishloq oqsollari, volost boshlig‘i qilib tayinlasada ular imperiyaning joylardagi itoatkor xizmatkorlari edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomov H.G‘. O‘rta Osiyo va Rossiya (XVIII asr boshida davlatlararo munosabatlarning shakllanishi). - T.: Universitet, 2007.
2. Ziyoyev H. Tarix - o‘tmish va kelajak ko‘zgusi. - T., 2000.
3. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T.: Sharq, 1998.
4. Isokboyev A.A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma‘rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri XX asr boshlari): Tarix. fan. nomz.. Namangan, 2008.
5. Mavlonov O‘., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari. - T.: Akademiya, 2004.